

Termiz shahri hududidagi Qirqqiz qal'asi

Termiz shahri hududidagi Qirqqiz qal'asi

Maftunkor tabiat manzaralari, boy tarixi bilan dunyo sayyohlarini o'z bag'riga chorlayotgan Surxon vohasida bugungi kunda 570 ga yaqin madaniy meros obyektlari mavjud. Termiz shahri hududidagi Qirqqiz qal'asi hashamatligi va ulug'vorligi bilan vohadagi boshqa tarixiy obidalardan alohida ajralib turadi. So'nggi yillarda madaniy merosga bo'lgan davlat e'tiborini mazkur yodgorlikda olib borilayotgan restavrasiya ishlari misolida ko'rish mumkin.